

Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

2
0
2
4



No 4

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati



74-91 xalqaro daraja
ISSN: 2992-8982



Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Elektron nashr. 630 sahifa.

E'lon qilishga 2024-yil 30-aprelda ruxsat etildi.

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, t.f.d., prof., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, i.f.d., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinbosari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlisi qonunchilik palatasi deputati
Axmedov Sayfullo Normatovich i.f.n., professor, MIM akademiyasi rektori
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof., TDIU YoMMMIB birinchi prorektori
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, i.f.d., prof., "O'IRIAM" ilmiy tadqiqot markazi direktori – prorektor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, i.f.d., TMI professori
Samadov Asqarjon Nishonovich, i.f.n., TDIU professori
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, f.f.d., TDIU professori
Axmedov Ikrom Akramovich, i.f.d. TDIU professori
Po'latov Baxtiyor Alimovich, t.f.d., profesor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, i.f.d., TDIU professori
Isakov Janabay Yakubbayevich, i.f.d., TDIU professori
Musyeva Shoira Azimovna, SamDu IS instituti professori
Axmedov Javohir Jamolovich, i.f.f.d., "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinbosari
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, t.f.f.d., TAQU katta o'qituvchisi
Xalikov Suyun Ravshanovich, i. f. n., TDAU dotsenti
Kamilova Iroda Xusniddinovna, i.f.f.d., TDIU dotsenti
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, i.f.f.d., TDIU dotsenti
Rustamov Ilhomiddin, f.f.n., Farg'ona davlat universiteti dotsenti
Fayziyev Oybek Raximovich, i.f.f.d. (PhD), Alfraganus universiteti dotsenti
Sevil Piriyeva Karaman, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktoranti
Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li, TDIU mustaqil tadqiqotchisi
Utayev Uktam Choriyevich, O'zR Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farxod, O'zR Bosh prokuraturasi iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti bo'limi boshlig'i
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, TDIU katta o'qituvchisi

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, i.f.d, TDIU dotsenti
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, i.f.d., TMI dotsenti
Babayeva Zuhra Yuldashevna, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.



Behavioral Theory of the Firm	201
Egamberdieva Oydin Abror qizi	
The Role of Information Technologies in Increasing the Capitalization of Commercial Banks	207
Egamova Makhfurat Esanovna	
Финансовые риски в исламском финансировании для внедрения в Республики Узбекистан	211
Абдуллоев Фуркат Олимджонович	
Совершенствование методологии экспертизы инвестиционных проектов	216
Бекимбетова Гулнора Маратовна	
Методические подходы к формированию механизмов стратегического управления развитием химической отрасли	223
Бибутова Шахло Саъдуллаевна	
Меры по снижению доли теневой экономики в стране	228
Махмудова Юлдузхон Бахромжон қизи, Сафаров Гиёсиддин Абдуллаевич ўғли	
Формирование национальной инновационной системы – одна из приоритетных задач повышения конкурентоспособности Республики Узбекистан	232
Н. М. Махмудов, А. А. Алиев, З. А. Мирзоев	
Мониторинг и анализ современного состояния и развития промышленности в Узбекистане	237
Назарова Раъно Рустамовна, Исмоилова Малика Дилшодовна	
Цифровая платформа как инструмент трансформации бизнес-процессов	243
Раупов Жамшид Рашидович	
Роль применения ключевых показателей эффективности труда на предприятиях	249
Рахматуллаева Шахноза Хамидовна	
Влияние цифровой трансформации на инвестиционную привлекательность Узбекистана	255
Саиткамолов Мухаммадхожа Сабирходжа угли, Маркабаева Жансая Айбек кызы	
Организация и координация методической помощи при управлении педагогическими кадрами	261
Хакимова Майя Юрьевна	
Интеграция узбекистана в мировое экономическое содружество путем унификации бухгалтерского учета на основе МСФО	266
Зарипова Саёхат Зафаровна	
Tijorat banklari tomonidan investitsiya loyihalarini moliyalashni rivojlantirish imkoniyatlari	271
Abduqodirova Ozoda Anvarjon qizi	
Tijorat banklari tomonidan jismoniy shaxslarga ajratilgan kreditlarning joriy tahlili	276
Abdusalomov Jaxongir O'ktam o'g'li	
Globallashuv sharoitida mamlakatimizda sug'urta bozorini raqamlashtirishning ahamiyati	282
Anvarova Z.	
The Role of Parents and Teachers in Promoting a Healthy Lifestyle in Children	286
Axtamov Djamshed Baxromovich	
A study of the Importance of Green Economy in Uzbekistan and its Measurement Indicators in Relation to Nature	291
Ataniyazova Maksuda Baltayevna	



GLOBALLASHUV SHAROITIDA MAMLAKATIMIZDA SUG'URTA BOZORINI RAQAMLASHTIRISHNING AHAMIYATI

Anvarova Z.

BuxDU, Raqamli iqtisodiyot yo'nalishi 2-kurs magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada mamlakatimizda sug'urta bozori, hozirgi kunda sug'urta bozorini raqamlashtirishning nazariy va amaliy jihatlarini yoritilgan.

Kalit so'zlar: sug'urta, sug'urta bozori, internet, raqamlashtirish, Big Data.

Abstract: This article describes the insurance market of our country, theoretical and practical aspects of digitalization of the insurance market today.

Key words: insurance, insurance market, Internet, digitalization, big data.

Аннотация: В данной статье описан страховой рынок нашей страны, теоретические и практические аспекты цифровизации страхового рынка сегодня.

Ключевые слова: страхование, страховой рынок, интернет, цифровизация, большие данные.

KIRISH

Hozirgi kunda davlatimiz sug'urta tizimidagi tendensiyalarni aniqlash, uning innovatsion yo'nalishlarini tizimga joriy etish asosiy vazifalardan biri hisoblanadi. Innovatsion yo'nalishlarni joriy etish nafaqat axborotni raqamlashtirish va uni zamonaviy telekommunikatsiya kanallari yordamida tarqatish, balki sug'urta tizimi uchun mijozlarga xizmat ko'rsatishni yaxshilashga qaratilgan zamonaviy telekommunikatsiya va innovatsion texnologiyalarni qo'llash jarayoni sifatida ham ta'riflangan. Bu borada sug'urta sohasidagi mavjud amaliyotlarni hisobga olgan holda biz veb-saytlar, ijtimoiy tarmoqlar, chat-botlar, videoxosting, videotelefoniya, bulutli texnologiyalar va boshqalar kabi asosiy innovatsion texnologiyalarni aytishimiz mumkin.

Mamlakatimiz Prezidentining "Sug'urta bozorini raqamlashtirish va hayot sug'urtasi sohasini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Prezident qarori (PQ-5265-son, 23.10.2021-y.), "Kompyuterlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish to'g'risida"gi Farmoni va Respublika Vazirlar Mahkamasining "Kompyuterlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish chora-tadbirlari"ga oid bir qator qarorlari muhim ahamiyat kasb etadi¹.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Bugungi iqtisodiy holat, biznes-modellarning va texnologiyalarning yuqori sur'atda o'zgarishi, mahsulotlar hayotiylik davrining tezlashishi sug'urta kompaniyalari raqobatbardoshligini innovatsiyalardan foydalanmay turib oshirishning imkoni mavjud emasligini isbotlamoqda. Sug'urta kompaniyalari raqobatbardoshligi uning ma'lum bir sohada boshqa raqib sug'urtalovchilardan ustunligini anglatadi. M.Porterning fikricha, raqobatbardoshlik o'z navbatida resurslardan samarali foydalanishni aks ettiradi. Sug'urta kompaniyalari raqobatbardoshligini oshirish yo'llaridan biri innovatsiyalarni ishlab chiqish va ulardan foydalanish hisoblanadi. Shuningdek, bozor sharoitlarining doimiy o'zgarishi sug'urta tizimida innovatsiyalarni qo'llash zaruratini oshiradi. Globallashuv sharoitida iste'molchilar ehtiyojiga tayangan holda mahsulotlarni yaratish sug'urta kompaniyalarining bozordagi raqobatbardoshligini oshiradi va o'z faoliyatini samarali amalga oshirish imkoniyatlarini beradi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, texnologik innovatsiyalar uchun moliyaviy resurslar bilan bog'liq muammolar yuzaga kelganda innovatsion sug'urta marketingi sug'urta kompaniyalarining raqobat kurashida asosiy dastak bo'lib xizmat qiladi va ularning bozor muhitidagi faoliyati uning mijozlari tomonidan belgilanadi. Agar mijozlar

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qaror va farmonlari



sug'urta mahsuloti va xizmatlarini ularni yaratishga sarflangan xarajatlarga nisbatan ko'proq baholasa, biznes rivojlanadi, aks holda unga tashqi yordam zarur bo'ladi yoki bunday tashkilotlar inqirozga yuz tutadi. Bu borada P.Druker quyidagi fikrni bildirgan: – biznesning asosiy maqsadi mijozlarni jalb qilish bo'lganligi sababli, sug'urta kompaniyalarining ikkita va faqat ikkita asosiy funksiyasi mavjud: sug'urta marketingi va innovatsiya. Shularni inobatga olgan holda, sug'urta bozorida raqamlashtirish, uning ahamiyati, uning yo'nalishlari, sug'urta bozorini raqamlashtirishni rivojlantirish omillari tahlil qilinadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada guruhlash, taqqoslash, tahlil va sintez usullaridan keng foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Sug'urta bozoriga kirishning internet hisobiga yengillashuvi butun dunyo sug'urta bozorlarida raqobatning kuchayishiga olib kelishi lozim. Kuchli raqobat sug'urta qiluvchilarni narxlarni pasaytirishga majbur qiladi, bu esa iste'molchilarda ijobiy aks etadi. Elektron tijorat sug'urta qiluvchilarga xarajatlarni pasaytirish va sug'urta bozori shaffofligini oshirishga imkon beradi. Barcha sug'urta turlari, xususan, hayot va salomatlik, uy-joy, dala hovli, avtomobil, moddiy boyliklar (sun'iy yo'ldoshlardan tortib san'at asarlarigacha) deyarli barcha xizmat turlari (qurilish-montaj ishlaridan tortib sport bilan shug'ullanishgacha) va turli majburiyat turlari (fuqarolik javobgarligidan kasbiy javobgarlikkacha) sug'urta qilinadi. Shartnomani faqat bir necha marta uzaytirishning o'zi evaziga foyda olish mumkin bo'lgan ushbu biznesda sug'urta qildiruvchilar moyilligi juda katta ahamiyatga ega. Ta'kidlash joizki, agent orqali sug'urta qildirgan mijozlar odatda polisni xuddi shu agent orqali uzaytiradi, virtual mijozlar esa sug'urta qiluvchilarni tez-tez o'zgartirib turishga moyil bo'ladi.

1-jadval: Sug'urta kompaniyalari faoliyatida internet sug'urta bozoriga kirish yo'lidagi to'siqlar²

Ichki	Tashqi
Kompaniyaning qisqa muddatli strategiyasi, innovatsion rivojlanish tashabbusining yo'qligi.	Aholida internet orqali xarid qilish tajribasining yo'qligi.
Tizimni xarid qilish va sozlash xarajatlarning kattaligi.	Mintaqalarda internetdan foydalanish qiymatining yuqoriligi.
Bunday tizimlarning unchalik keng tarqalmaganligi personalni o'qitish xarajatlari katta bo'lishini talab qilishi.	Mehnat bozorida kompaniyaning internet sug'urta tizimini yaratishga qodir bo'lgan malakali kadrlarning yo'qligi.
Kompaniya ichida zaruriy infratuzilmaning yo'qligi.	
Mintaqaviy bo'linmalarning innovatsiyalarga qarshiligi.	
Sifatli dasturiy mahsulotni loyihalashtirish va yaratishdagi qiyinchiliklar.	

O'zbekistonda sug'urta kompaniyalari faoliyatida internet sug'urta bozoriga kirish yo'lidagi to'siqlar yoritilgan bo'lib, ichki va tashqi omillar sanab o'tilgan. Mazkur omillarning bartaraf etilishi sug'urta bozorida xizmat ko'rsatish sifatining oshirilishi, sug'urta mahsulotlarini yaratish texnologiyalaridan unumli foydalanishni ta'minlaydi va sug'urtalash ko'lamini kengaytiradi.

Sug'urtaning raqamli iqtisodiyotdagi o'rni va rolini aniqlashdan oldin raqamli sug'urta tushunchasining nazariy asoslarini ko'rib chiqish maqsadga muvofiq va u ikkita yondashuvga asoslanadi. Birinchidan, raqamli sug'urta mijozlarda sug'urta manfaatlari mavjudligi va ularni raqamli texnologiyalar orqali qondirish bilan bog'liq iqtisodiy munosabatlarni ifodalaydi. Boshqacha qilib aytganda, raqamli sug'urta sug'urta qoplamasini amalga oshirishning raqamli usuli hisoblanadi. Ikkinchidan, rivojlanayotgan raqamli iqtisodiyotda raqamli texnologiyalarning faol rivojlanishi yangi risklarning paydo bo'lishiga sabab bo'lmoqda, shu jumladan, kiber risklar, shuningdek, ilmiy tadqiqotlar jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan boshqa risklar. Raqamli iqtisodiyot risklarining bir qismi sug'urta mexanizmlarini qo'llash orqali minimallashtiriladi. Shu sababli raqamli sug'urta sug'urta qildiruvchilarning asosan raqamli iqtisodiyot muhitida yuzaga keladigan va texnologik uskunalaridan foydalanishda hamroh bo'ladigan tasodifiy noxush hodisalar natijasida yuzaga keladigan aniq sug'urta qoplamasiga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish usuli sifatida tushuniladi, bu iqtisodiy munosabatlarni amalga oshirish uchun moddiy asos hisoblanadi.

Ilgari ushbu sug'urta xizmatlari elektron tijorat sug'urtasi, kiber xatarlarni sug'urtalash, elektron va kompyuter jinoyatlaridan sug'urta deb nomlangan, biroq endilikda raqamli sug'urta raqamli sug'urta himoyasiga bo'lgan an'anaviy yoki o'ziga xos (raqamlashtirish natijasida hosil bo'lgan) ehtiyojni qondirish usuli sifatida

2 Mavrulova N.A. Sug'urtada axborot texnologiyalari(O'quv Qo'llanma)Toshkent – "NIHOL PRINT" OK – 2022.



ularni birlashtirish imkoniyatiga ega. Shunga oʻxshash jarayonlar sugʻurta bozorida allaqachon sodir boʻlgan, masalan, telefon sugʻurtasi elektron uskunalarni sugʻurtalashning keyingi rivojlanishi uchun asos boʻlib xizmat qildi, bu endi mustaqil sugʻurta mahsuloti emas, balki mulkni sugʻurtalashga qoʻshimcha hisoblanadi.

Shunday qilib, raqamli sugʻurta bir tomondan, raqamli iqtisodiyot tomonidan ishlab chiqilgan boʻlsa, boshqa tomondan, bu sugʻurta kompaniyasi tomonidan organik ravishda amalga oshiriladigan raqamli texnologiyalarni amalga oshiruvchi uning tarkibiy qismi hisoblanadi. Shu sababli, raqamli sugʻurta raqamli texnologiyalar orqali anʼanaviy yoki oʻziga xos (raqamlashtirish natijasida hosil boʻlgan) sugʻurta muhofazasi ehtiyojlarini qondirish usuli hisoblanadi. Shu bilan birga, sugʻurta kompaniyalari tomonidan raqamli texnologiyalardan foydalangan holda sugʻurta faoliyatini amalga oshirishni biz sugʻurta bozorini raqamlashtirish, deb taʼriflaymiz. Internetlashtirish sugʻurta bozorini raqamlashtirish yoʻnalishi sifatida sugʻurta kompaniyasining ish jarayonlarida internetdan foydalanish orqali amalga oshiriladi. Hozirgi vaqtda Internet sugʻurta atamasi keng tarqalgan boʻlib, u tor maʼnoga ega va sugʻurta xizmatlarini internet orqali sotishni nazarda tutadi³. Sugʻurta bozorini raqamlashtirishning bir qator asosiy yoʻnalishlari mavjud boʻlib, ular raqamli iqtisodiyotning allaqachon oʻrnatilgan terminologiyasi doirasida sugʻurta faoliyatini internetlashtirish, raqamlashtirish va yakallashtirish sifatida tavsiflanishi mumkin, ularning xususiyatlari quyidagi jadvalda keltirilgan.

Sugʻurta faoliyatini internetlashtirish sugʻurta kompaniyalarida quyidagi yoʻnalishlarda amalga oshiriladi:

- sugʻurta xizmatlarini internet orqali sotish;
- sugʻurta daʼvolarini internet orqali qondirish;
- internet orqali sugʻurta qildiruvchilar toʻgʻrisida maʼlumot toʻplash.

2-jadval: Sugʻurta bozorini raqamlashtirishning asosiy yoʻnalishlari⁴

Yoʻnalish	Tavsif	Qoʻllaniladigan raqamli texnologiyalar	Sugʻurtalovchi auditoriyasi
Internetlashtirish	Sugʻurta kompaniyalarining biznes jarayonlarida internetdan foydalanish	Yangi ishlab chiqarish texnologiyalari; simsiz texnologiyalar; bulutli texnologiyalar	Tashqi – sugʻurta qildiruvchilar; ichki – xodimlar, Sugʻurta agentlari
Yakallashtirish	Sugʻurtalanuvchi va sugʻurta obyekti haqida imkon qadar kengroq maʼlumotlarni toʻplash uchun alohida takliflarni ishlab chiqish	Katta maʼlumotlar; yangi ishlab chiqarish texnologiyalari; simsiz ulanishlar	Tashqi – sugʻurta qildiruvchilar (shu jumladan, potensial sugʻurtalanuvchi lar)
Raqamlashtirish	Sugʻurtalovchining biznes jarayonlarida raqamli texnologiyalardan foydalanish	Yangi ishlab chiqarish texnologiyalari; simsiz ulanishlar	Ichki – xodimlar; tashqi – sugʻurta qildiruvchilar

Xoʻjalik yurituvchi subyektlar, korxonalar va hukumat tomonidan internetdan tobora koʻproq foydalanish sugʻurta bozorining yangi segmentlari paydo boʻlishiga olib keladi, masalan, kiber risklarni sugʻurtalash, internet obyektlarini sugʻurtalash va boshqalar. Bu jarayonlar toʻlaligicha raqamli sugʻurtaga taalluqli va sugʻurta biznesining internetlashtirilishiga hech qanday aloqasi yoʻq. Shunday qilib, sugʻurta bozorini internetlashtirishni rivojlantirishga hissa qoʻshadigan omillar quyidagilardan iborat:

- internet foydalanuvchilari va onlayn savdo operatsiyalari bilan shugʻullanadigan shaxslar sonining koʻpayishi;
- sugʻurtalovchi va sugʻurta qildiruvchining internet orqali oʻzaro aloqalarini tartibga soluvchi qonunlarning paydo boʻlishi;
- sugʻurta xizmatlarini onlayn sotish va internet orqali sugʻurta daʼvolarini hal qilishning yuqori rentabelligi;
- Oʻzbekistonda sugʻurta bozorida internet savdoning past darajadagi bazasi;
- Sugʻurta xizmatlarini xususilashtirish, ularga taklif qilish va zararlarni qoplashga qaratilgan sugʻurta qildiruvchilar tomonidan Big Data texnologiyalaridan faolroq foydalanish.

3 Цыганов А. А., Грызенкова Ю. В., Быстров А. В. Организация интернет- страхования: учеб. пособие. М.: Изд. центр ГУУ, 2004.
4 Mavrulova N.A. Sugʻurtada axborot texnologiyalari(Oʻquv Qoʻllanma)Toshkent – “NIHOL PRINT” OK – 2022.



Sug'urta faoliyatida internet sug'urtani rivojlantirishga to'sqinlik qiluvchi omillar esa quyidagilardir:

- Sug'urta firibgarligining yuqori darajasi;
- onlayn sug'urta operatsiyalarining kiber jinoyatchilikka ta'sir qilishi;
- O'zbekiston hududini yuqori sifatli internet bilan to'liq qamrab olishdagi muammolar;
- Sug'urtalovchilarning zararlilik koeffitsiyentining yuqori darajasi tufayli internet sug'urtasining drayveri rolini o'ynashi mumkin bo'lgan ommaviy sug'urta turlariga (birinchi navbatda, avtosug'urtaga) qiziqishning pastligi;
- aholining sug'urta madaniyati va sug'urta kompaniyalariga bo'lgan ishonchning pastligi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, mamlakatimizda sug'urta bozorining rivojlanishi tobora raqamli iqtisodiyotning sug'urta texnologiyasiga ta'sir ko'rsatadigan, ammo uning iqtisodiy mohiyatini o'zgartirmaydigan yangi texnologiyalarni joriy etishga bog'liq bo'lib bormoqda. Raqamli texnologiyalarni sug'urta faoliyatida qo'llash natijasida:

- sug'urta faoliyati samaradorligi va rentabelligi oshadi;
- o'zaro va tijorat sug'urtasining yaqinlashuvi (P2P sug'urtasi) amalga oshadi;
- sug'urta munosabatlarining ijtimoiylashuviga erishiladi;
- yangi sug'urta xizmatlari va mahsulotlari paydo bo'ladi;
- sug'urta sohasidagi mehnat bozori o'zgaradi, ya'ni ba'zi sug'urta agentlari, soha mutaxassislarini avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari va robotlar bilan almashtirish sodir bo'ladi.

Shu asosda sug'urta bozorini raqamlashtirishning oltita asosiy tendensiyalari aytib o'tish mumkin, ular:

- raqamlashtirish sug'urta bozorini shakllantirishning yangi sohasi sifatida O'zbekistonda endigina boshlangan va jadal rivojlantirish;
- sug'urta kompaniyalari tomonidan potentsial mijozlar va mavjud sug'urtachilarga taklif etilayotgan yangi xizmatlarning butun majmuasini o'z ichiga olgan raqamli sug'urta tizimini kengaytirish;
- mobil ilovalar orqali mobil sug'urta tizimini shakllantirish;
- telematikani joriy etish;
- sug'urta xizmatlari va bulutli texnologiyalar uchun avtomatlashtirilgan tizimlardan foydalanish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. "Sug'urta bozorini raqamlashtirish va hayot sug'urtasi sohasini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Prezident qarori (PQ-5265-son, 23.10.2021-y.)
2. "Kompyuterlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish to'g'risida"gi Farmoni.
3. Respublika Vazirlar Mahkamasining "Kompyuterlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish chora-tadbirlari" qarori.
4. Drucker, P.F. Management: tasks, responsibilities, practices, Transaction Publishers, New Brunswick, N.J.; London.2007
5. Jask Kinder, Jr.Garry Kinder –Secrets of Successful Insurance Sales ma'lumotlari.
6. Цыганов А. А., Грызенкова Ю. В., Быстров А. В. Организация интернет- страхования: учеб. пособие. М.: Изд. центр ГУУ, 2004.
7. Mavrulova N.A. Sug'urtada axborot texnologiyalari (O'quv Qo'llanma) Toshkent – "NIHOL PRINT" OK – 2022
8. <http://www.Studme.ord> internet sayti ma'lumotlari.
9. <http://www.raexpert.ru> ma'lumotlari.